



# XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALI-2019

*O'zbekiston dunyo mamlakatlari ichida xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning eng qadimiy turlari, an'analari, o'ziga xos uslub va maktablari saqlanib qolgan kam sonli*

***mamlakatlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Yurtimizda milliy hunarmandchilikni har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar o'z samarasini berayotir.***

Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yilning 10-15 sentabr kunlari Qo'qon shahrida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan xalqaro hunarmandchilik festivali ham bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishga xizmat qiladi.

Aytib o'tish lozimki, hozirdanoq ushbu xalqaro tadbirga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Ayni paytda yurtimizdagi turli hunarmandchilik maskanlari, san'at oliygohlarida milliy

qadriyatlarimiz bilan uyg'un bo'lgan ushbu fayzli tadbirni o'tkazish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti zimmasiga festivalning ochilish qismini ko'tarinki ruhda tashkillashtirish hamda xalqaro festival davomida mahalliy hamda xorijlik mehmonlarga milliylikimizning bir qismi bo'lgan ananaviy hunarmandchilik turlari va ularning o'ziga xos bo'lgan avloddan-

avlodga meros bo'lib kelayotgan sirsinoatlarini sahna ko'rinishlarida ochib berish vazifasi yuklatilgan.

Bugun institutning saralab olingan bir guruh talaba-yoshlari ham soha mutaxassislari – professor-o'qituvchilvar O'zbekiston tarixida ilk marotaba o'tkaziladigan nufuzli tadbirga qizg'in hozirlik ko'rishmoqda.



Ijodiy tayyorgarlik jarayonida republikamizning turli hududlarida mavjud

analar va urf-odatlarni o'zida namoyon etgan milliy kuylar, xalq og'zaki ijodiga mansub aytimlar shuningdek viloyatlarimizning milliy hunarmandchilikdagi o'ziga xos qirralarini ko'rsatib beruvchi spektakllar sahnalashtirilmoqda.



O'ylaymizki uzoq va yaqindan Qo'qonga kelgan san'at va madaniyat shaydolariga

yosh san'atkorlar tomonidan tayyorlangan  
chiqishlar manzur bo'ladi.

Qo'qon xalqaro hunarmandchilik  
festivaliga tayyorgarlik ishlari davom  
etmoqda.

**O'zDSMI Axborot xizmati**